



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2024- yil “31” may

BUYRUQ № 126

Toshkent sh.

**Ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo‘yicha
uslubiy nizomni tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qarori ijrosini ta‘minlash, shuningdek, Ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobini yanada takomillashtirish maqsadida, **buyuraman:**

1. “Ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo‘yicha uslubiy nizom” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2021- yil 28- sentabrdagi “Ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan), shu jumladan, qishloq joylarida ko‘rsatilgan xizmatlarning statistik hisobi bo‘yicha uslubiy Nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 38- son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

3. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Direktor

B. Begalov